

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQ RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

**Musayeva Nafisa Kudratovna**

*NavDU dotsent,*

*musayevanafisa19@gmail.com*

**Mardonova Vasila Mustafo qizi**

*NavDU talaba*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, nutq rivojlanishining har bir bosqichi bolaning umumiy psixik taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu davrda sensor, kognitiv, emosional va ijtimoiy rivojlanish haqida fikr-mulohaza yuritilgan

**Kalit so'zlar:** nutq, ijtimoiy muhit, pedagogik muhit, psixologik xususiyatlar, sog'liq holati, nutq me'yori, nutq faoliyati, tarbiyachining nutq madaniyati

**Abstract:** This article discusses the specific features of speech development in preschool children, each stage of speech development is inextricably linked with the child's overall psychological development, and reflects on sensory, cognitive, emotional, and social development during this period.

**Keywords:** speech, social environment, pedagogical environment, psychological characteristics, health status, speech norm, speech activity, teacher's speech culture

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq rivojlanishi murakkab va bosqichma-bosqich kechadigan jarayon bo'lib, psixologik, pedagogik va lingvistik omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Ushbu jarayon bolaning muloqotga ehtiyoji, atrof-muhit bilan faol munosabatlari, oila va ta'lim muhitidagi til madaniyati bilan chambarchas bog'liqdir. Nutq rivojlanishining har bir bosqichi bolaning umumiy psixik taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu davrda sensor, kognitiv, emosional va ijtimoiy rivojlanish ham parallel tarzda shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'rganish psixolingvistika, pedagogika, defektologiya, nutq o'stirish metodikasi, ontolingvistika kabi fanlar uchun juda muhimdir.

Nutq shartli reflekslar asosida shakllanadi, bola eshitgan tovushni ma'lum obyekt yoki harakat bilan bog'laydi. Bola kattalarning nutqini qayta-qayta eshitib, shartli assotsiatsiyalar yaratadi va asta-sekin so'zlar ma'nosini o'zlashtiradi. Bolalarda nutqning rivojlanishi atrof-muhit va ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liq. Maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati o'yin bo'lib, bu jarayona bola jismoniy, aqliy, nutqiy jihatlarini rivojlantiradi.

O'yin faoliyati, rolli muloqot, takrorlash, kattalar bilan emotsional aloqalar bolaning nutq o'sishini jadallashtiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni ijtimoiy muhit, pedagogik muhit, psixologik xususiyatlar, sog'liq holatiga ko'ra tahlil qilishimiz mumkin.

*Ijtimoiy omillar:* Oiladagi muhit – ota-onaning bolaga tez-tez murojaat qilishi, suhbatdosh bo'lishi, kitob o'qib berishi nutqni tezlashtiradi. Tengdoshlar bilan o'ynash, suhbatlashish nutqning tabiiy rivojlanishiga, muloqot tajribasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bunday madaniy muhit va boy til muhitida o'sgan bola so'z boyligini tezroq o'zlashtiradi.

*Pedagogik omillar:* Maktabgacha ta'lim sifati – mashg'ulotlar, nutq o'stirish o'yinlari, tarbiyachining nutq madaniyati hisoblanadi. Fonetik mashqlar, so'z boyligini oshirish, bog'lanishli nutqni rivojlantirish bo'yicha nutq o'stirish metodikasidagi tizimli ishlarni to'g'ri yo'lga qo'yish joiz. Bolalar o'yinchoqlar, rasmlar, sensor materiallar bilan munosabatga kirishishi orqali rivojlantiruvchi muhitni shakllantiradi.

*Sog'liq bilan bog'liq omillar:* Nevrologik kasalliklar, autizm spektri, diqqat yetishmovchiligi kabi holatlar nutq rivojiga ta'sir qilishi mumkin. Doimiy stress, uyqu yetishmasligi, vitamin yetishmovchiligi ham nutq jarayonini susaytiradi

*Psixologik omillar:* Idrok, xotira, tafakkurning rivoji – bola atrofdagi so'zlarni eslab qolish, tushunish va qayta qo'llash orqali nutqini boyitadi. Emotsional holat – ishonch, qo'llab-quvvatlash, xavfsizlik muhiti bola nutqining faol rivojlanishiga yordam beradi. Motivatsiya – gapirishga bo'lgan ehtiyoj kuchli bo'lsa, bola tezroq nutq o'rganadi.

Nutq yaratilishi jarayonining tafakkur bilan aloqasi psixolingvistikada “nutq yaratilishi modeli” deb nomlanuvchi sxemalarda aks ettirildi. Bunday modellarning aksariyati L.S.Vigotiskiy tomonidan ilgari surilgan va “Fikrdan – ma'noga, ma'nodan – so'zga” degan konsepsiyada o'z aksini topdi. L.S.Vigotiskiy fikriga ko'ra, fikr nutqqa aylanguncha bir necha bosqichlardan o'tishi lozim. Olimning “ichki so'z” haqidagi g'oyasi botiniy nutq to'g'risidagi qarashlar rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ichki so'z – botiniy nutqda paydo bo'luvchi, inson ongidagi obrazlar, assotsiatsiyalarning ramzi. Aynan u botiniy nutqning tashqi, tabiiy nutqqa aylanishida vosita bo'la oladi<sup>65</sup>. Botiniy nutqdagi fikrning so'zga aylanish jarayonini u “tafakkur grammatikasining so'z grammatikasiga aylanishi” sifatida izohlaydi<sup>66</sup>. Shu o'rinda, ichki so'z – botiniy nutq bolalarda 3 yoshdan boshlab rivojlana boshlaydi va bu bola hayotida alohida ahamiyat kasb etadi.

Bolaning kattalar bilan muloqoti jarayonida uning nutqi shakllanib, takomillashib boradi. Bu esa ruhiy jarayonlarni tubdan qayta quradi. A.R.Luriyaning ta'kidlashicha, bolaning

<sup>65</sup> Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Наука, 2008. – С. 55-66.

<sup>66</sup> Седов К.Ф. Дискурс и личность. – М., 2004. – С. 10.

o'zini tutishida yuzaga keluvchi murakkab boshqaruv masalalarida nutq faoliyati asos bo'ladi. Kattalar bilan bo'lgan muloqotda ba'zan bolalar o'z fikrlarini erkin aytish va munosabatlarni o'rnatishda o'ziga xos to'sqinliklarga duch kelishi mumkin, bu nutqiy muloqotni bola o'z o'rtoqlari, o'yinchoqlari bilan muloqotda to'ldirib boradi.

Ilk bolalik davri chegaralari bilan tutash bo'lgan nutqning shakllanish bosqichi turli soha olimlarini, jumladan: psixologlar, pedagoglar, lingvistlarni eng avvalo bu nutq rivojida o'ziga xos alohida davrligi bilan qiziqtirib keladi. Buning o'ziga xosligi shundaki, u nutqni rivojlantirish uchun sentiziv hisoblanadi; mazkur davrda nutq muloqot vositasi sifatida paydo bo'ladi va takomillashadi; uning rivojlanishi shunday tez sur'atlarda amalga oshadiki, keyin u kelgusidagi barcha ontogenez mobaynida boshqa kuzatilmaydi. K.D.Ushinskiy shunday qayd etgan edi: "bola... ikki-uch yoshida shunchalik yengil va tez o'zlashtirib oladiki, keyin yigirma yil qunt bilan o'qiganida ham uning yarmini ham o'zlashtira olmaydi".

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, maktabgacha yosh davrida bola nutq rivojining eng intensiv davri bo'lib, bu jarayon izchil metodika, jonli muloqot, pedagogik yondashuv orqali shakllanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Наука, 2008. – С. 55-66.
2. Седов К.Ф. Дискурс и личность. – М., 2004. – С. 10.
3. Yo'ldosheva D. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishining psixologik asoslari. Toshkent: TDPU. 2021.
4. Касевич В.Б. Сосюр. Корпус. Щерба. Онтолингвистика. Известия РГПУ им. А. И. Герцена, 2018. № 189. – 8 с.
5. 1 Лингвистический энциклопедический словарь // Научн.-ред. совет изд-ва «Сов. энцикл.», Ин-т языкознания АН СССР / Гл.ред. В.Н. Ярцева. – М.: Сов. энциклопедия, 1990. –131 с.
6. Musayeva N.K. O'zbek bolalar kvazidialogik nutqining pragmatik xususiyatlari. Monografiya, Navoiy – 2024.– 123 b.
7. G'afforova M. M. *Maktabgacha ta'lim pedagogikasi*. Toshkent: Fan va texnologiya. 2020.
8. Nabiyeva M. "Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq leksikasining shakllanishi." *Maktabgacha ta'lim jurnali*, №3. 2019.
9. Xodjayeva M. "Bolalarda nutq kamchiliklari va ularni bartaraf etish yo'llari." *Logopediya amaliyoti*, №2. 2022.

